

VERULNING PRAGMATIK VA GAP QURILISHIDAGI AHAMIYATI

Zarginiso Sidmuradova Iskandarovna

Buxoro davlat universiteti Filologiya fakultet talabasi

Toirova Guli Ibragimovna

*BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası professori, filologiya fanlari doktori
Ilmiy rahbar:*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada vergulning pragmatik va gap qurilishidagi ahamiyati va shu bilan bir qatorda, punktuatsiya haqida hamda vergul tinish belgisi qachondan G'arbiy Yevropada ishlatilganligi, hozirgi kunda tinish belgilar soni va vergul qanday holatlarda ishlatilishi haqida misollar orqali keng yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: vergul, punktuatsiya, sanash ohangi, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalma, kirish so'z, ko'chirma gap, takrorlangan so'zlar, qo'shma gap.

Abstract. In this article, the period when the comma punctuation mark was used in Western Europe, the number of punctuation marks today and the the situations in which the comma is used will be explained in detail through examples.

Key words: *comma, punctuation, couting tone, cohesive balls, separted balls, exclamatory, introduction, repeated words, compound sentence.*

Vergul tinish belgisi sifatida G'arbiy Yevropa XV asrdan boshlab ishlatilgan. O'zbekcha matnlarda XX asr boshlaridan boshlab uchraydi. Tinish belgilari qo'llanishi haqidagi qoidalar yig'indisi punktuatsiyadir. Punktuatsiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lib, lotincha "punctum" so'zidan olingan hamda "nuqta, to'xtash joyi" degan ma'nolarni anglatadi. Punktuatsiya asosi deganda tinish belgilarining qo'llanilishi nimaga bog'liqligi tushuniladi. O'zbek tili Punktuatsiyasining birinchi asosi o'zbek tilining pragmatic siztemasi nutqning mazmunan, intonatsiya va tuzulish tomonlariining bir butunlikni tashkil qiladi. Hozirgi o'zbek yozuvida 10 xil tinish belgisi foydalaniladi va shular qatorida vergul ham bor. Vergul eng ko'p qo'llaniladigan tinish belgilar jumlasiga kiradi, va bu (,) vergul tinish belgisini qo'llash bilan birga gapning mazmun mohiyati o'zgarishi mumkin. Bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'lgan voqealarni bildirsa, shuningdek, mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa, tuzulishi jihatidan bir xil bo'lib, biror narsani tavsifini beruvchi, sanash ohangi bilan aytilgan gaplardan tashkil topgan bo'lsa vergul qo'llaniladi. Verul qo'llanish usuliga ko'ra yakka qo'llanuvchi, qo'llash o'rnida ko'ra gap oxirida qo'llanuvchi tinish beigilar siraia kiruvchi, tuzilishia ko'ra bir elementli tinish belgilar guruhiga, vazifasia ko'ra ayiruvchi tinish belgisi hisoblanadi [1, 6,7].

Vergul quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Uyushiq bo'laklar orasida :

- bog'lovchilarsiz, sanash ohangi yordamida birikkan bo'lsa;
- zidlov bog'lovchilari bilan birikkan bo'lsa;

- takror qo'llanilgan ayiruv bog'lovchilari bilan bog'langan bo'lsa;
- bog'lovchi vazifasida takror qo'llanilgan ham yuklamasi bilan bog'langan bo'lsa vergul ishlatiladi.

M: - Og'ir tabiatlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" 4-bet)

2. Ajratilgan bo'laklarning ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

M: - Sotqi bek kestin, Aziz bachchaga deng, -dedi Homid va Akram hojiga qarab kuldi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" 12-bet)

M: -Shundaymi, unda, maylingiz. O'zi, kelin qayerda, quda? (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" 183-bet)

3. Undalmalar gapning boshqa bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi.

M: Bu qadar sahovat, bunchalik dabdaba, albatta, xazinadagi oltinlar kuchi bilan bo'lgandir, deb ba'zilarining ko'ngliga kelar. (Abdulla Qodiriy "Mehrobdan Chayon" 26-bet)

M: -Nihoyat, doxtirlar gipsni oldi, uyfa javob berdi. Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" 194-bet)

4. Kirish so'z va kirish birikma ham vergul bilan ajratiladi.

M: - Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo'qdir, -dedi Rahmat va Otabekka yuz o'girdi. (A.Qodiriy "O'tkan kunlar" 8-bet)

5. Tasdiq, ta'kid va inkor, shu kabi ma'nolarini bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom, kabi so'z-gaplardan leyin kelgan bo'laklarni ulardan ajratish uchun vergul qo'yiladi.

M: Xayr, taqsir, xayr! (Abdulla Qodiriy "Mehrobdan Chayon" 128-bet)

M: -Xo'sh, nechuk o'ylanib qolding, Ali? (Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi 20-bet)

M: - Ha, aytganday, polvon, -dedi, - mavridi kelganda yatib qo'yay, ziyor-bazinhor tizzadan pastdan ushlama! (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" 75-bet)

6. Undov so'zlar his-hayajon bilan aytilmasa, ulardan so'ng vergul ishlatiladi.

M: Ey, menga bir minutga qarab qo'ying.

7. Qoshma gap tarkibidagi sodda gaplar orasida:

- ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap va bosh gap orasida vergul qo'yiladi;

M: El senga etsa nadomat, dunyoda turolmassan salomat. (Maqol)

- bog'lovchisiz qo'shma gaplarda qo'shma gap qismlari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa, bir paytda yoki ketma-ket sodir bo'lgan voqea-hodisalarni ifodalasa yoki bir xil tuzilishga ega bo'lib, sanash ohangi bilan aytilsa vergul qo'yiladi;

M: Yurgan - daryo, o'lturgan - bo'ryo. (A. Qodiriy "O'tkan kunlar" 14-bet)

- bog'langan qo'shma gaplarda qismalri zidlov bog'lovchialri, -u, -yu, -da yuklamalari, takror qo'llanilgan ayiruv bog'lovchilari yordamida birikkan bo'lsa vergul ishlatiladi.

M: -Tog'ri gap, -dedi Rahmat,-otam bilan men Toshkand borg'animizda to'p-to'g'ri sizning eshikingizga tushaylik-da, siz saroyga tushing. (A. Qodiriy "O'tkan kunlar" 16-bet)

M: Agar Bobur mirzo tuzalgan bo'lsa-yu, Andijonga ishonib, Samarqandni tashlab chiqsa, ahvol hozirgidan battar bo'lishi mumkin. (Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" 165-bet)

8. Ko'chirma gap muallif gapidan oldin kelib, darak, buyruq, istak gap bo'lsa, undan so'ng vergul ishlatiladi. (7-bet)

M: -Xudoga shukur, -dedi, Hasanali, - boyag'idan biroz yengilladim. (A. Qodiriy "O'tkan kunlar" 5-bet)

M: -Quruq ketmang,- deya egar qoshiga to'n ildi. (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" 3-bet)

9. Takrorlangan so'zlar orasida vergul qo'yiladi,.

M: Bunda hamma, hamma narsa bor.

M: - Ha, ha... bilmadim, bilmadim. (Abdulhamid Cho'lpon " Kecha va kunduz 8-bet)

M:- Yo, pirim-e, yo pirim-e! (Tog'ay Murod "Ot kishnagan oqshom" 100-bet)

Verul belgilarining qator - ikki yoki undan ortiq qo'llanilishi, asosan, gap oxirida, ba'zan gap boshi yoki o'rtasida ham kuzatilib, u bilan bog'liq ayrim holatlar kuzatish mumkin. Masalan: [vergul + tire] - "Kamtarlik, - deydi Hamid Olimjon, - donolik yo'lining boshlanishi" yoki [vergul + tire + ko'p nuqta] - Xalos, xalos, - dedi mufti, - ...ammo mulla Abdurahmon mulohazasining qiymati shundakim, Sultonali muammosini tez hal qilsa bolur. (A.Qodiriy) [qo'shtirnoq + vergul + tire] - "Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi", - deydi Tog'ay Murod.

[so'roq + undov + qavs + vergul] - Undan ko'nglimni tamom sovitib yuboradigan xususiyatni atayin izlagan damlarim bo'idi, shunday xususiyatni topguday bo'lsam, oramizdagi inja munosabatiarga barham berilishiga bahonayi sabab bolarmikan degan xayollarda yurgan paytlarim bo'ldi, biroq izlashlar-izlanishlarning bari behuda ketdi (Shu emasmi iztirobiarimizning ilohiyligi?!), yo'q, behuda ketdi desam yolg'on aytgan bo'laman. (X.Do'stmuhammad) [so'roq + undov + ko'p nuqta + qo'shtirnoq + qavs + vergul] - Yozuvchining bu fikri ("Qaydasan go'zalim?!"), dunyoqarashi uning yaxshi niyatda ekanini ko'rsatadi [4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, vergul tinish belisi pragmatik jihatdan yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi yozuv orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy aloqa-aralashuvni to'g'ri ta'minlash va yozma nutqdagi maqsad, mazmun va ma'noni aniqlashtirish, farqlash hamda yozma nutqdagi murakkab fikriy munosabatlarni ko'rsatib berish uchun ahamiyatli bo'lsa, grammatik jihatdan esa gap qurilishini aniq belgilash - gap bo'laklari, sodda yoki qo'shmaligi, uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalma, kiritmalar, bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasidagi munosabatni ko'rsatish, muallif va ko'chirma gaplarni ajratish, yozma nutqni ixcham va ravon bayon qilish uchun ahamiyatlidir. Punktatsiya va ohang ikki xil nutq turiga xos mustaqil kategoriyalar bo'lib, bir-biriga teng kelmaydi, punktatsiya intonatsiyaning yozuvdagi ifodasi emas. Ularning o'zaro aloqadorligi haqida gapirilganda ohangning gapdagi darajasi hisobga olinadi. Punktatsiya va intonatsiya munosabati alohida tadqiq manbai bo'lib, eksperimental o'rganishni talab etadi.

FOYDALANILAN ADABIYOTLAR:

1. Абдурахмонов Ғ. Пунктуацияни ўргатиш методикаси, -Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1968, -Б.6-7.
2. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремикологияси луғати. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1984.
3. Б л о к А. Собр. соч. в 8 т. Т V. – М.–Л., 1962. С. 515.
4. Bahriddinova B. Zamonaviy o'zbek punktuatsiyasi asoslari. – Toshkent: «Akademnashr», 2015.
5. Валгина Н.С. Необычное. в обычном. Заметки о пунктуации А. Ахматовой// Русская речь, 1979, № 6. С. 22–29.
6. Назаров К., Эгамбердиев Б. Ўзбек тили имло-ишора қоидалари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1996.
7. Сафронова И. П. Эстетическая функция пунктуации в поэзии М.Цветаевой. КД.–Ижевск, 2004 г.ва б.
8. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари. Тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. – Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2015.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Икки томлик, иккинчи том. – Тошкент: «Фан», 1988.
10. Хайлова Е. Г. Пунктуация стихотворений И.Ф.Анненского. КД. – М.,2005
11. Abdurakhmonova N., Alisher I. and Toirova G., "Applying Web Crawler Technologies for Compiling Parallel Corpora as one Stage of Natural Language Processing," 2022 7th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), Diyarbakir, Turkey, 2022, pp. 73-75, doi: 10.1109/UBMK55850.2022.9919521.
12. Toirova G.,Yuldasheva M., Elibaeva I. Importance of Interface in Creating Corpus. // International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN: 2277-3878, Volume-8 Issue-2S10, September 2019. –P.352-355.
13. Toirova, G., (2019). The Role of Setting in Linguistic Modeling. International Multilingual Journal of Science and Technology, 4(9):722-723, available at: <http://imjst.org/index.php/vol-4-issue-9-september-2019/>.
14. Misollar toppish uchun quyidagi adabiyotlardan foydalanildi:
A.Qodiriy “O'tkan kunlar”, Tog'ay Murod “Ot kishnagan oqshom”, Abdulla Qodiriy “Mehrobdan Chayon”, Odil Yoqubov “Ulug'bek xazinasini”, Pirimqul Qodirov “Yulduzli tunlar”.